



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tadbirkorlik asoslari fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 11-sinflar uchun
tadbirkorlik asoslari fanidan
II chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 11-sinflar uchun tadbirkorlik asoslari fanidan fanidan
II chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Qishloq joylarda tadbirkorlik	1		
2.	Yoshlar tadbirkorligi	1		
3.	Biznes reja ishlab chiqish	1		
4.	Biznes loyiha va startaplar	1		
5.	Korxona ta’ sis hujjatlari	1		
6.	Nazorat ishi-2	1		
7.	Tadbirkorlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish	1		
8.	Qishloq joylarda tadbirkorlik	1		
9.	Yoshlar tadbirkorligi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Qishloq joylarda tadbirkorlik

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o'stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetkazish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq dars sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchrida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ma'lumki, hozirgi kunda yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmaydi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan

ortiqni tashkil etadi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish lozim.



Mamlakatimiz aholisining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi.

Qishloq joylarda, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullaniladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotimizda qishloq joylarida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati ahamiyatli o'rin tutadi. Shu bois siz qishloq joylarida eng avvalo, shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishingiz mumkin. Shaxsiy yordamchi xo'jalik – qishloq joylarda yashovchi fuqarolarning o'z tomorqasidagi shaxsiy mehnati orqali qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanishiga asoslangan oilaviy xo'jalik.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik qishloq joylarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun uy-joy qurishga berilgan yer maydonlarida tashkil etiladi. Uning uy-joy qurilmagan qismi tomorqa deb ataladi. Mazkur tomorqada oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish mumkin. Uning asosiy qismi oila ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Lekin, aksariyat hollarda, bu mahsulotlar oila ehtiyojidan ortiqcha bo'ladi. Ushbu ortiqcha mahsulotlarni dehqon bozorlarida sotish hamda qo'shimcha daromad olish mumkin bo'lib, bu o'z mazmuniga ko'ra tadbirkorlik hisoblanadi.

Agar siz shaxsiy yordamchi xo'jalikdagi tadbirkorlik faoliyati bilan cheklanishni istamasangiz, u holda dehqon xo'jaligi tashkil etishingiz mumkin.

Dehqon xo'jaligi– oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan oilaviy mayda tovar xo'jaligi. Dehqon xo'jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida tashkil etiladi. U oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yuritiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining tutgan o'rnini qanday baholash mumkin? Keyingi yillarda ushbu tarmoqda qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?
2. Mamlakatimiz aholisining qancha foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi? Qishloq va shahar o'rtasida qanday tafovutlar mavjud?

3. Qishloq joylarida aholi daromadlarini oshirishning qanday imkoniyatlari mavjud?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yoshlar tadbirkorligi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o'stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O'zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo'lib voyaga yetkazish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq dars sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchrida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Tadbirkorlik faoliyati bilan, yoshidan qat'i nazar, muomala layoqatiga ega bo'lgan barcha fuqarolar shug'ullanishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, davlat imkon qadar yoshlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Chunki yoshlar jamiyatning katta kuch va g‘ayrat sarflashga qodir, harakatchan, barcha yangi hodisalarni tez qabul qiluvchi va o‘zlashtiruvchi faol qismi hisoblanadi. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bandligini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari tashkil etishga imkon yaratadi. Shuningdek, tadbirkor yoshlar safining kengayishi milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘lidan borishini ta‘minlaydi. Bu esa yosh, tashabbuskor, yangicha fikrlaydigan tadbirkorlar avlodini shakllantirishni taqozo etadi.

Yoshlar tadbirkorligi – mamlakatda 18 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayoni.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi «Yoshlar tadbirkorligi klasterlarini yaratishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Iqtisodiyotda faoliyati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, masalan, xomashyo va materiallar yetkazib beruvchi, infratuzilma xizmatlari ko‘rsatuvchi, ilmiy tadqiqot muassasalari va boshqa tashkilotlar guruhining muayyan hududga jamlanishi klaster deb nomlanadi. Klasterning tashkil etilishi mazkur tashkilotlarning faoliyat natijalarini yaxshilab, raqobatdoshligini oshiradi.

Klaster – muayyan hududda jamlangan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar guruhi.

Yoshlar tadbirkorligi klasterlari – muayyan hududda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda imtiyozli xizmatlar va qulay shart-sharoitlar bilan ta‘minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar guruhi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Rasmlardagi tadbirkorlarni yosh jihatdan ajrating. Tadbirkorning yoshi uning faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
2. Davlat tomonidan yosh tadbirkorlar uchun alohida g‘amxo‘rlik qilinishi kerakmi yoki yo‘qmi? Fikringizni asoslang.
3. Siz mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan qanday chora-tadbirlarni bilasiz?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

11-sinf tadbirkorlik fanidan II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**